

## AHMAT LUTFI QOZONCHI USLUBINING O‘ZIGA XOSLIGI

**Quvonchbek JURAQULOV,**

TDSHU 2- kurs magistranti, Toshkent, O‘zbekiston.

Tel: +998939946461; Email: [juraqulovquvonchbekg@mail.com](mailto:juraqulovquvonchbekg@mail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola Ahmat Lutfiy Qozonchining o‘ziga xos uslubini aniqlashga bag‘ishlangan. Bunda tadqiqot obyekti sifatida Ahmat Lutfiy Qozonchining “Üvey anne” (O‘gay ona) asaridagi asar qahramonlari nutqining tarjimasini xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlari:** muallif uslubi, personaj nutqi, tarjima, asliyat, tarjima matni,

**Kirish.** Muallif uslubi deganda biror bir muallifning muayyan bir davrda yaratgan asarlarida doim uchrab turadigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy unsurlar majmuasi tushuniladi<sup>1</sup>. Yozuvchining badiiy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos tili, tasvirlash manerasi. Har bir chinakam ijodkor o‘z uslubiga ega bo‘ladi. Masalan, Navoiy g‘azallari yuksak badiiyligi, fikrlarning teranligi bilan, Bobur asarlari esa musiqiyligi, tilining soddaligi bilan ajralib turadi. Uslub ijodkorning o‘zligini, mustaqilligini belgilaydi. Ammo uslubni yozuvchi o‘zi o‘ylab chiqargan narsa deb qarash kerak emas. Ijodkor o‘zidan avvalgi adib va shoirlarning asarlari bilan tanishar ekan, ulardan o‘rganadi. Yozuvchilar o‘zaro o‘xshash bo‘lishlari mumkin, lekin albatta, farqli jihatlari ham bo‘ladi. Inson badiiy asar o‘qir ekan asardagi ma’no bilan birlikda yozuvchining tushuntirish tili, badiiy uslubiga ham ahamiyatlidir. Ahmat Lutfi Qozonchining o‘ziga xosligini biz qanday aniqlashimiz mumkin? Albatta, uning yozgan asarlariga qarab aniqlaymiz. Quyidagi asarlari hozirgi kunda o‘zbek tiliga tarjima qilingan: “Özlenen şafak” (Sog‘ingan tong), “Aydınlıklara doğru” (Nur tomon), “Doğuş” (Tug‘ilish), “Yükseliş” (Yuksalish), “Guruba yaklaşırken” (Guruhga yaqinlashyotganda), “Kovuşma” (Uchrashuv), “Peygamberimize neden inanmadılar?” (Payg‘ambarimizga nega ishonmadilar?), “Kaynana Münevver hanım” (Qaynona), “Üvey anne” (O‘gay ona), “Son fırtına” (So‘nggi to‘fon), “Bir vicdan uyanıyor” (Bir vijdon ug‘onur) va tarjima qilinmagan asarlari: “İslam’da irade kaza ve kader”, “İslam İmanı, Kur’an ışığında peygamberlik ve peygamberler”, “Hz. Peygamberin hitabeti”, “Nübüvvet pınarından kırk hadis”, “Hz. Peygamber’in öğrettiği dualar ve zikirler”, “Dini bilgiler”, “Hz. Ebu Bekir”, “Hz. Ömer 1”, “Hz. Ömer 2”, “Hz. Osman 1”, “Hz. Osman 2”, “Hz. Ali 1”, “Hz. Ali 2”, “Çeşitli tönleriyle nübüvvet kavramı”, “Hz. Adem’den Hatemü’l-Enbiyaya 1”, “Hz. Adem’den Hatemü’l-Enbiyaya 2”, “Hz.

<sup>1</sup> Salomov G‘. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 60.

Adem'den Hatemü'l-Enbiyaya 3", "Bizim sevgili Peygamberimiz", "Dört ulu çınar, Kendimi anlatayım dedim".

Otasi Mehmet Nuri etikdo'zlik bilan shug'ullanib oilasini boqar edi va shu bilan birga hofiz bo'lgani uchun mahalla masjidida imomlik bilan ham shug'illangan. Tepejik masjidida yigirma sakkiz yil to'xtovsiz hech qanday manfaat kutmasdan ishlagan. Qozonchi juda qiyin sharoitda katta bo'lgan. Qozonchi yoshligida otasidan pul so'rasa, otasi hamyonini chiqarib g'amgin bir shaklda "pulim yo'q, o'g'lim" der edi. Xuddi shu holat adibning asarlarida ham o'z aksini topadi. "O'gay ona" asarining qahramonlaridan bo'lgan Ismoil yoshligidan moddiy muammolar va ona sog'inchi bilan katta bo'lgan, keyinchalik esa asarning bosh qahramoni Fotima xonimga kuyov bo'ladi. Yozuvchi bu bilan dunyoga yaxshilik, mehr-oqibat tarqatish kerakligi, azob-uqubatlardan keyin albatta, charog'on kunlar borligiga ishora qilgan. Yozuvchining otasi yillar davomida masjid imomligini hech qanday mabfaatlarsiz davom ettirgani, halolligi, to'g'riso'zligi bilan mahallada hurmat qozongan inson edi. Yozuvchi shuning uchun otasining izdoshi bo'lib hayotini Islom dinini o'rganishga bag'ishlagan. Onasi Qozonchi tug'ilgandan keyin to'qqiz yil kasal bo'lib yotib qolgan. Shuncha vaqt mobaynida ona mehridan uzoq qolgan yozuvchi o'z asarlarida ona sog'inchini ko'p tilga oladi.

**Maqsad va vazifalar:** Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, muallif uslubiga xos xususiyatlarni aniqlash. A.L.Qozonchining "Üvey anne"(O'gay ona) asari va tarjimasini matnlarida ko'rib chiqiladi. Ishning vazifalari quyidagilar:

- A.L.Qozonchi uslubiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash;
- Muallif uslubiga xos bo'lgan xususiyatlarni tarjimada berilishini aniqlash;

**Usullar:** Muallif uslubini tarjimada saqlab qolishini aniqlashda A.L.Qozonchining "Üvey anne"(O'gay ona) asarining asl nusxasi va o'zbekcha tarjimasini qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

**Tadqiqot manbasi:** A.L.Qozonchining "O'gay ona" asarining asli va o'zbekcha tarjimasini hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti:** Tadqiqotning obyekti sifatida A.L.Qozonchining "O'gay ona" asaridagi personajlar nutqi xos bo'lgan xususiyatlar: dialoglardagi jumla qurilishi, qahramonlar nutqi, ifoda shakli kabilarning tarjimada saqlanib qolganligini aniqlashdir.

**Natija va mulohazalar:** Yozuvchi bu asarda xalqning milliy urf-odatlarini, yashash tarzi, jamiyatdagi kamchiliklar, ya'ni g'iybatchilik, yolg'onchilik, fitna-fasotlarni ham ko'rsatib berishga harakat qilgan. Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda xalqning boshidan o'tkizgan qiyinchiliklarni ham ko'zdan qochirmaydi. O'sha paytda din odamlariga bo'lgan haqsiz fikrlar, ularning eskilik sarqiti deb qaralishini qoralaydi. Ismoil yetim bo'lishiga qaramay Fotimaxonim unga qizini berib jamiyatda hozirgacha



davom etib kelyotgan illat bo‘lgan kuyovlik nomzodini boyligiga qarashni ham yomon narsa ekanligini asarda yoritib beradi.

Bir badiiy asarni qiymatini oshiradigan, o‘quvchilar tomonidan qiziqish bilan o‘qilishini ta‘minlaydigan unsur bu shakl va voqealar rivoji hisoblanadi. “Shakl va voqealar rivojining mustahkam tamallar asosida qurulishi asarning qiymatini oshiradi. Chunki o‘quvchi bilan asar o‘rtasidagi dialog yoki aloqa natijasida yuzaga keladigan estetik hayajon shaklning yaxshiligidandir”<sup>2</sup>. Qozonchining asarlarida voqealar rivoji juda ham yaxshi tarzda olib borilgan, bu esa, albatta, o‘quvchini o‘ziga tortadi. Yozuvchining tilining soddaligi ham katta ahamiyatga egadir. Qozonchining tili sodda va yingil hisoblanadi. Asarda yuzga yaqin iboralar va maqollardan foydalangan, bu esa yozuvchining til imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanganini ko‘rsatadi. “Peygamberimize neden inanmadilar?” (“Rasulullohga nega ishonmadilar?” Firdavs Mirzo tarjiması) asari diniy-ma‘rifiy asar hisoblanadi. Yozuvchi ko‘proq tarixiy asarlar yozgani va asarlarining ko‘pgina qismi diniy mavzuda bo‘lgani uchun tarixiy so‘zlardan keng foydalangan. Tarixiy so‘zlardan foydalangan bo‘lishiga qaramay asarning tili soddadir. Bu asarda Islom dinidagi ba‘zi muammolar olib chiqilgan. Oddiy xalq uchun diniy bilimlarni boyitishga xizmat qilgan. Tarjimon yozuvchining asarini tarjima qilgan ekan boshqa badiiy asarlar tarjimasiga qaraganda osonroq tarjima qilingan desak xato hisoblanmaydi, chunki so‘zma-so‘z tarjima usulida tarjima qilsa bo‘ladi. Bunga quyidagi gapni misol qilib olsa bo‘ladi.

“*Bunlardan ayrı olarak Peygamberimizin miraç hadisesi de onlar için ayrı bir mucize teşkil etmişti*”<sup>3</sup>. (“*Bundan tashqari Payg‘ambarimiz s.a.v.ning Mehrojga chiqishlari ham ular uchun yana bir mujiza bo‘lgan edi*”<sup>4</sup>.)

Qozonchi uslubiga xos bo‘lgan yana bir xususiyat bu asarlarida maqol va iboralardan keng tarzda foydalanishdir. Badiiy asarlarda maqoldan foydalanish adabiyotshunoslikda *irsolu-l masal* (arabcha: maqlo qo‘llash) deb ataladi. Madaniyatlarning ajralmas qismi bo‘lgan maqollardan, iboralardan foydalanish orqali asrlar mobaynida asranib, sayqallanib, avlodlardan ajdodlarga ko‘chib kelyotgan qadryatlarni davom etiradi. Maqol matal insoniyat tarixida ajralmas bir bo‘lagi bo‘lgani uchun ham juda eski manbaalarda maqollarga duch kelishimiz mumkin. Yozuvchi o‘z asarida ko‘plab maqollar, matallar va iboralarga yer bo‘ladigan bo‘lsa, demak, u yozuvchi o‘z millatining tarixi va tilini chuqur ma‘noda bilishining isboti bo‘ladi. A.L.Qozonchining ushbu asarida ko‘plab ibora va maqollar ishlatishi uning o‘z tilini va millatining tarixini chuqur bilishini ko‘rsatib beradi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin:

<sup>2</sup> Tekin M. Roman sanati 1. – İstanbul: Ötüken Yayınları, 2003. – S. 67.

<sup>3</sup> Kazancı A. Peygamberimize neden inanmadılar? – İzmir: Işık yayınları, 2006. – S. 86.

<sup>4</sup> Qozonchi A.L. Rasulullohga nega ishonmadilar? – Toshkent: Munir, 2021. – B. 100.

*Üvey anne... bu ismi bugüne kadar hakiki manasiyla düşünmemişti. Başına gelmeyen bilmez derler.* [Kazancı A. Üvey anne. 44] **Tarjiması:** Shu kungacha bu soʻzning haqiqiy maʼnosini tushunmagan ekan. Boshga tushmaguncha bilmas deydi. [Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 34] bu parchada yozuvchi maqol oʻrnida boshqa soʻzlar vositasida ham oʻz fikrini bayon qilishi mumkin edi, lekin yozuvchi bunday yoʻl tutmasdan maqol orqali ifodalagan.

*Ah karshi taraftan bir dönme teklifi gelirse, hiç tereddüt etmez, zararın neresinden dönülürse kardır diyerek, bütün alakasını bir anda kesiverirdi.* [Kazancı A. Üvey anne. 45-46] **Tarjiması:** oh! Qarshi taraftan qaytish taklifi kelganda edi, hech ikkilanmasdan, zararli ishning qayeridan qaytsa ham foydali deb oʻsha ondanoq butun aloqalarni uzib yuborgan boʻlar edi.

*Ama iyi bir kimse ister, kızı da onun öksüzleriyle uğraşmayı göze alabilirse ona deyeceği yoktur. Bu sebeple, müstakbel damadı namına gelenlere muvafakat cevabı verdi.* [Kazancı A. Üvey anne. 31] **Tarjiması:** Lekin yaxshi odamdan soʻrab kelishibdi, qizi ham uning yetim bolalarini qarashdagi qiyinchiliklariga rozi boʻlsa, unga hech narsa demaydi. Shuning uchun boʻlajak kuyov nomidan kelganlarga mos javob berdi.

*İkinci sonu okuldan eve gelen Hüseyin’de bir durgunluk göze çarpıyordu* [Kazancı A. Üvey anne. 98]. **Tarjiması:** Tushdan keyin maktabdan qaytgan Husaynda parishonlik yaqqol koʻzga tashlanar edi.

*Fatma Hanım, oturup boşuna çene çalmaktan hoşlanan bir kadın değildi* [Kazancı A. Üvey anne. 118]. **Tarjiması:** Fotima xonim oʻtirib gap sotadigan ayol emas edi.

Yuqoridagi maqol va iboralarning baʼzilari toʻgʻri tarjima qilingan, baʼzilari esa oʻzbek tilida muqobili bor boʻlsa ham, oddiy soʻzlar bilan tarjima qilingan. Tarjimashunos olim X.Hamidov bu haqida quyidagicha fikr bildirgan “har bir xalqning oʻz eʼtiqodi, oʻziga xos milliy, maʼnaviy qadryatlari, maqol va matallari uchun asos qilib olingan timsollari, obrazlari bor. Maqol yoki matal boshqa tilga koʻchganda uning shakli emas, mazmuni qayta yaratiladi. Oʻziga xos shakli, soʻz yoki obrazning asliyat tilida anglatilgan mazmuni ifoda etilmay qolgan matal maqollar boshqa xalq nazarida uni yaratgan xalqning donishmandligidan darak berish oʻrniga, uning badiiy tafakkuri taxliti toʻgʻrisida notoʻgʻri taassurot qoldirishi mumkin”<sup>5</sup>. Bunga quyidagi gapni misol qilib olsak boʻladi: *Ah karshi taraftan bir dönme teklifi gelirse, hiç tereddüt etmez, zararın neresinden dönülürse kardır diyerek, bütün alakasını bir anda kesiverirdi* [Kazancı A. Üvey anne. 45-46]. **Tarjiması:** Oh, qarshi taraftan qaytish taklifi kelsaydi, toʻy zararini toʻlab, barcha aloqani toʻxtatgan boʻlard. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 35].

<sup>5</sup> Hamidov X. Oʻzbek qissa va romanlari turk tilida. – Toshkent, 2022. – B. 197-198.



Bu jumlaning tarjimon noto'g'ri tarjima qilgan va natijada aslyatdagi ma'no o'zgarib ketgan. Bu gapni quyidagicha tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi: oh! Qarshi tarafdin qaytish taklifi kelganda edi, hech ikkilanmasdan, zararli ishning qayeridan qaytsa ham foydali deb o'sha ondanoq butun aloqalarni uzib yuborgan bo'lar edi. To'g'ri bu tarjimada maqol bilan tarjima qilinmagan, lekin maqolning ma'nosi chiqarib berilgan. Chunki o'zbek tilida bu maqolning muqobili topilmadi.

Bir roman yoki roman yozuvchisini o'rganish jarayonida eng muhim omillardan biri bu yozuvchining asarda tilni qanday ifodalashidir. Turk adabiyoti nomayondalaridan biri bo'lgan Ahmat Lutfi Qozonchining va boshqa yozuvchilarni ham boshqa yozuvchilardan ajratib turadigan eng asosiy xususiyat bu yozuvchining tili va uslubidir. O'ziga xos uslub va tilning shakllanishida yozuvchining yashash tarzi, qanday muhitda ulg'aygani, kimning asarlaridan ilhomlanganligi, o'zining shaxsiy qadryatlari ham juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ahmat Lutfi Qozonchi "O'gay ona" romanini juda ham soda tilda yozgan. Bu asar 1971-yilda yozilgan bo'lgani uchun ba'zi eski so'zlat uchraydi, ammo bu o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi. O'quvchi bu asarni o'qish davomida o'qishga qiynalmaydi. Adabiyotda shunday asarlar borki, ularni o'qish va tushunish o'quvchi uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. Shu bilan birga yozuvchi xalq ishlatadigan soda tilda o'z asarlarini yozgan. Asar mobaynida yozuvchi jamiyatdagi ba'zi muammolarni birib o'tishga harakat qilgan. Barcha xalqlarda mavjud bo'lgan g'iybatchilik, jamiyatda behudaga vaqtni o'tkazish, bolalar o'rtasida yoshi kattalarga bo'lgan behurmatlik, tamaki mahsulotlariga o'rganib qolish, san'atkorlarning oddiy aholi uchun qilayotgan ta'siri, bilimsizlik va birovning haqini yeyish kabi muammolarni asarida berib o'tgan. Asarning asosiy g'oyasi yetimlarga muhabbat va shavfqat bilan bo'lish bo'lsa, yetimlarga bo'layotgan yomon munosabat, yetimlar o'gay ona qo'lida qanchalik qiynalayotganini ham ko'rsatib o'tadi. Asarning boshida xuddi shunday o'gay ona zulmidan aziyat chekkan Ismoil ismli bola haqida gap boradi. Uning boshiga tushgan tashvishlar, o'gay onasi qilgan zulmlari, onasizlikdan chekkan qayg'u-alamlari, onasi yo'q bo'lgani yetmaganday otasi ham o'gay onasi tarafga o'tib olib qilgan qilmishlarini tasvirlab o'tadi. Yozuvchi bu qahramon haqida shunchaki gapirib o'tmaydi, balki uni voqealar rivojida asosiy ro'lga olib chiqadi va o'z qizini unga turmushga beradi. Shu yo'l bilan ikki emas, balki uch yetimga g'amxo'rlik qiladi.

Ba'zi yozuvchilar asarning jonli bo'lishi uchun personajlar nutqida mahalliy so'zlardan, shevaga oid so'zlardan foydalanadi. Shu yo'l bilan yozuvchi personajlar haqida ba'zi ma'lumotlarni bermasa ham, u ma'lumotlar bilinib turadi. Masalan: qahramonning qayerdanligi, savodxonlik darajasi, dunyoqarashi va e'tiqodi kabilar yozuvchi ifoda qilmasa ham, o'quvchi u qahramon haqida bilib turadi. Ahmat Lutfi Qozonchi bu asarida mahalliy va shevaga oid so'zlardan foydalanmagan, lekin yozuvchi personajlar nutqiga qo'shimcha ma'no yuklamagan degan fikrga borish xato

hisoblanadi. Yozuvchi personajlar nutqi vositasida asar qahramonlarining e'tiqodi qay qarajada ekanligi, savodxonlik darajasi, dunyoqarashi va qahramonning o'sha paytdagi his-tuyg'ularini bilib olishimiz mumkin. Ba'zi personajlar nutqiga aloqador misollar orqali yuqoridagi fikrlarni daraklab o'tamiz.

- “Nereye böyle ey Ümmü Seleme?..
- Medine'ye gidiyorum.
- Hani kimse yok yanında!..
- Allah'tan başka kimsem yok.
- Seni böyle yalnız başına bırakamam”<sup>6</sup>.
- “Qayerga, ey Ummu Salama?
- Madinaga ketyapman.
- Nega yoningda hech kim yo'q?
- Ha, Allohdan boshqa hech kimim yo'q.
- Seni yolg'iz qo'yib yubora olmayman”<sup>7</sup>.

Umuman olib qaralganda, qahramon jonli nutqi yaxshi tarjima qilingan, lekin “Hani kimse yok yanında?” gapini “Nega hech kim yo'q yoningda?” deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Yozuvchi bunday gap qurilishi bilan qahramon hayronligi, taajjublanganligini bildirgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun dialog tarjima jarayonida qahramon shevada gapirsa, uning shevada gapirlanligini bildirish maqsadida gap qurilishini o'zgartirib uning noodatiyligini bildirish kerak.

Darilirim yoksa. Bir daha bana abla deme öyleyse. [Kazancı A. Üvey anne.15]

**Tarjimasi:** Agar olmasang, boshqa opa dema. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 12].

Yuqoridagi gapda qahramonning his-tuyg'ularini ifodalash maqsadida gap qurilishini o'zgartirgan. Bu ham personajlar nutqining jonli bo'lib turishiga xizmat qiladi. Bu tarjimada chiqarib berilmagan bu gapni quyidagicha tarjima qilib qaraydigan bo'lsak, personaj nutqining jonliligini his qilamiz: xafa bo'laman, agar. Bundan keyin menga opa dema unaqada. Ben senin ablan değil miyim İsmail? Her zaman gel yanıma. [Kazancı A. Üvey anne. 16] **Tarjimasi:** Men senga opa bo'lmay, kimman? Yonimga tez-tez kelib tur. [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 13].

Yuqoridagi gapda ham gap qurilishi o'zgargan, buning sababi esa gap urg'usi bo'ladi. Ikkinchi gapdagi *her zaman gel yanıma* gapida gap urg'usi oxirgi so'zga ya'ni yonimga so'ziga tushadi. Qahramon bu bilan gapdagi o'sha ma'noga urg'u bermoqda. Ne yaptın aşağıda Fatma? [Kazancı A. Üvey anne. 17] **Tarjimasi:** Pastda nima qilib yuruvding Fotima? [A.L.Qozonchi. Eng sara asarlari. 13].

Yozuvchilar atayin shunday gap qurilishidan foydalanadi, chunki gapiryotgan paytimiz grammatik qoidalarga amal qilmasligimizni aks ettiradi. Biz ham aslida

<sup>6</sup> Kazancı A. Peygamberimize neden inanmadılar?. – İzmir: Işık yayınları, 2006. – S. 44

<sup>7</sup> Qozonchi A L. Rasulullohga nega ishonmadılar?. – Toshkent: Munir, 2021. – B. 44

gapning kesimini har doim gapning oxiriga qo‘ymasdan gap o‘rtasida yoki boshida ishlatamiz. Jonli nutqni o‘quvchiga his qildirish maqsadida qilingan bu ishni tarjimada to‘g‘rilab qo‘yish unchalik ham yaxshi emas. Bu gapni nima qilding pastda, Fotima? Deb tarjima qilsak maqsadga muvofiq bo‘lardi.

**Xulosa:** Muallif uslubi deganda biror bir yozuvchi ma‘lum vaqt ichida yoki ma‘lum bir asar yaratishda ishlatgan usullar tushuniladi. Taniqli va adabiyotda o‘z o‘rniga ega yozuvchi bo‘lish uchun ijodkor o‘z uslubini yaratish kerak. Tatqiqotimizda o‘rganilyotgan yozuvchi o‘z uslubini yarata olgan yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchining tili soddaligi va xalqning muloqotdagi tilini o‘z asarlariga ko‘chirgani bilan boshqa turk yozuvchilaridan ajralib turadi. Xalqning jonli muloqot tili deganda mahalliy shevalar yoki ma‘lum bir guruh insonlarigagina tushunarli bo‘lgan tilda yozilgan degan fikrdan yiroqmiz. Ifoda usullaridan ham keng foydalangan. Adib til imkoniyatlaridan juda keng tarzda foydalangan. Personajlar nutqiga alohida e‘tibor qaratib unga turli qo‘shimcha ma‘nolar yuklagan.

Yozuvchilar o‘z usublari bilan boshqa yozuvchilardan farq qiladi. Bu asarda ham boshqa asarlardan farq qilinishining sababi boshqa shu mavzuda yozilgan asarlardan ifoda usullari, voqealar rivoji, tili qandayligidir. Asar o‘tgan asrda yozilgan bo‘lishiga qaramasdan eski so‘zlardan u qadar ko‘p foydalanmagan, asar tili sodda o‘quvchini zeriktiradigan darajada murakkab jumlar, qahramonlar bilan yozilmagan. Asar xalqning jonli tilida yozilgan bo‘lib o‘quvchini vaqtini unimli o‘tkazish bilan birga unga tarbiya ham beradigan bir asar hisoblanadi. Bu asar o‘zbek tiliga o‘girilar ekan ba‘zi joylarda kamchiliklarni hisobga olmasak yozuvchi uslubini saqlab qolgan deyish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxari:

1. Salomov G‘. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o‘quv qo‘llanma). – T.: 2014. 272 b
3. Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do‘stlik quroli (Maqolalar to‘plami). – Toshkent, 2017. 33–34-betlar.
4. Kazancı A. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyet, 2017. 232 b.
5. Qozonchi A L. Eng sara asarlari. – Toshkent: Book Media Nashr, 2020. – 592 b.